

ADABIY TA'LIMDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI GEYMIFIKATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TA'LIMIY MUAMMO SIFATIDA

Bobir Tojiboyev,

Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrası o'qituvchisi,

Tel: 94 650 69 98

E-mali: boburjontojiboyev6998@gamil.com

Annotatsiya. Hayotiy ko'nikmalar o'quvchilarning jamiyatda to'g'ri yoki noto'g'ri, yaxshi yoki yomon, muhim yoki ahamiyatsiz deb hisoblagan fikrlarni shakllantirishga hissa qo'shadi. Muhim sanalgan turli xil hayotiy ko'nikmalarga atrof-muhitga e'tiborli bo'lish, xatti-harakatlarini boshqarish, o'zgalarga hamdardlik, hamkorlik, qiyinchiliklarga chidamli bo'lish, mustaqil fikr bildirish va tashabbus kabilar xos. Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarda o'z-o'zini hurmat qilish, bezorilik yoki xurofot kabi hayotdagi muhim o'zgarishlar va qiyinchiliklarni boshqarishga ham yordamlashadi. Bu ularga maktabda, jamoa yoki umuman jamiyatda o'z fikrini bildirishga imkon beradi. Mazkur maqolada yuqorida ta'kidlangan masalalarga adabiy ta'lim jarayonida alohida yondashish masalasi o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: hayotiy ko'nikmalar, geymifikatsiya, intellektual va emotsional rivojlanish, qattiq ko'nikmalar (hard skills), yumshoq ko'nikmalar (soft skills), o'yinlar, ijtimoiy farovonlik, ruhiy xotirjamlik, jismoniy salomatlik.

ГЕЙМИФИКАЦИЯ КАК ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. Жизненные навыки способствуют формированию мнений, которые учащиеся считают правильными или неправильными, хорошими или плохими, важными или неважными в обществе. Различные жизненные навыки, которые считаются важными, характеризуются вниманием к окружающей среде, управлением своим поведением, эмпатией к другим, сотрудничеством, устойчивостью к трудностям, самостоятельным мышлением и инициативой. Развитие жизненных навыков также помогает учащимся справляться с важными жизненными изменениями и трудностями, такими как самоуважение, хулиганство или предрассудки. Это позволяет им выражать свое мнение в школе, в коллективе или в обществе в целом. В данной статье отражен вопрос особого подхода к вышеупомянутым вопросам в процессе литературного образования.

Ключевые слова: жизненные навыки, геймификация, интеллектуальное и эмоциональное развитие, жесткие навыки (hard skills), мягкие навыки (soft skills), игры, социальное благополучие, душевное спокойствие, физическое здоровье.

GAMIFICATION AS AN EDUCATIONAL PROBLEM IN DEVELOPING LIFE SKILLS IN LITERARY EDUCATION

Abstract. *Life skills contribute to the formation of opinions that students consider right or wrong, good or bad, important or insignificant in society. Various vital skills that are considered important are characterized by being attentive to the environment, controlling one's behavior, empathizing with others, cooperating, being resilient to difficulties, expressing independent opinions, and taking initiative. Developing life skills also helps students manage significant life changes and difficulties, such as self-esteem, bullying, or prejudice. This allows them to express their opinion at school, in the community, or in society as a whole. This article reflects the issue of a special approach to the above-mentioned issues in the process of literary education.*

Keywords: *life skills, gamification, intellectual and emotional development, hard skills, soft skills, games, social well-being, mental peace, physical health.*

KIRISH

Funksional hayot ko'nikmalari insonga baxtli va qoniqarli hayot kechirishga yordam berish maqsadiga qaratilgani bilan bugungi kunda dolzarbdir. Bunday ko'nikmalar oila va jamoada xotirjam yashashga qulay sharoit yaratadi. Funksional hayot ko'nikmalari odatda karyeraga erishish va uni saqlab qolish uchun zarur sanaladi. Masalan, ishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, professional kiyinishni o'rganish va yashash xarajatlarini hisoblash – bularning barchasi keng tarqalgan amaliy hayotiy ko'nikmalarga misollardir. Biroq, ish ko'nikmalari hayotning maktabda o'rgatilishi mumkin bo'lgan yagona jihati emas.

Adabiy ta'limda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati, ayniqsa, bugungi tezkor axborot asrida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, hayotiy ko'nikmalar real dunyoning murakkabliklarini yengib o'tishga chuqurroq tayyor bo'lgan shaxslarni kelgusi faoliyatga tayyorlashi nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. O'quvchilar intellektual va emotsional rivojlanish uchun tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarga muhtoj bo'ladi. Ular birgalikda hayotiy ko'nikmalar deb atalib, turli sharoitlarda muvaffaqiyatga erishish omilidir.

Hayotiy ko'nikmalar – bu o'quvchilarga kundalik hayotda duch keladigan muammolarni samarali boshqarish imkonini beruvchi o'rganish yoki bevosita hayot tajribasi orqali o'zlashtiriladigan asosiy ko'nikmalar yig'indisi. Ijodkorlik, strategik fikrlash, muammolarni hal etish, qarorlar qabul qilish, o'zaro munosabatlar o'rnatish

va hamkorlikka kirishish qobiliyati, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat – bularning barchasi XXI asrda sog'lom jamoa va farovon turmush tarzi uchun muvaffaqiyatga erishishda zarur sanalgan muhim ko'nikmalardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hayotiy ko'nikmalar kundalik hayot talablarini o'zlashtirish va qiyinchiliklarni yengib o'tishga sharoit yaratadigan muhim qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ularning qo'llanilishi inson hayotining uzluksizligini, bolalikdan to voyaga yetgunga qadar bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Turli tashkilotlar hayotiy ko'nikmalar ta'riflarini taklif qilsalar-da, ularning hayotdagi murakkab vaziyatlarni hal qilishdagi yetakchiligi borasida konsensus ustunlik qiladi. Masalan, YUNICEF hayotiy ko'nikmalarni odamlarga qarorlar qabul qilish, samarali muloqotni yo'lga qo'yish, his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni samarali boshqarishga yordam beradigan psixo-ijtimoiy va shaxslararo qobiliyatlar sifatida baholaydi [9]. Hayotiy ko'nikmalar boshqa qarashlarda esa "kundalik hayot talablariga javob berishga imkon yaratadigan ijobiy va moslashuvchan xatti-harakatlar" [2] ta'riflanadi.

S.Ashning fikricha, hayotiy ko'nikmalar ta'lim oluvchilarda "o'zini anglash, tanqidiy fikrlash, qarorlar qabul qilish, muammolarni hal qilish, muloqot yuritish, shaxslararo munosabatlar, empatiya, stress, his-tuyg'ular bilan kurashish va o'zgarishlarga dosh berish" [1] sifatlarini tarbiyalaydi. Bizningcha, adabiyot o'qitishda geymifikatsiya imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hayotning turli jabhalariga tatbiq etiladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga asos bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning kelgusi hayotiga poydevor sanaladi.

Adabiy ta'limning insoniy fazilatlar va his-tuyg'ularni tarkib toptirishdagi vazifalaridan tashqari boshqa jihatlari ham mavjud. R.Prajapati yozishicha, ta'limning o'quvchilarda "moliyaviy savodxonlik, vaqtni rejalashtirish va o'z xatti-harakatlarini boshqarish" [7; 1–6-b.] kabi asosiy hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyati ham mavjud. Biroq, adabiy asarlar matni ustida ishlashda innovatsion texnologiyalar zarur hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yagona vosita emas. P.K.Nairning fikricha, "Ta'limni shaxsiy tajriba va munosabatlar bilan integratsiyalash zamonaviy dunyoda

muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarning to'liq spektrini rivojlantirish formulasini tashkil etadi" [6].

O'quvchiga yo'naltirilgan geymifikatsiya elementlari ularni o'z bilim, tajriba va g'oyalariga ega faol ishtirokchilar sifatida kamol toptiradi. Ushbu yondashuv o'qituvchi va o'quvchilar uchun ijodiy va qiziqarli muhit yaratishga yordam beradi. Fikrimizcha, o'zini anglash va o'ziga ishonchni tarkib toptirish orqali o'quvchilar yanada g'ayratli subyektga aylanishlari shubhasiz. Zero, o'ziga ishonch va mustahkam shaxslararo ko'nikmalar yuqori intellektni rivojlantirish asosidir.

Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish faqat dars mashg'ulotlari bilan chegaralanib qolmaydi, balki ular ruhiy salomatlik, xotirjamlik va hayotning umumiy sifatiga ta'sir qiladi. Ushbu ko'nikmalar hissiy boshqaruv, to'g'ri qaror qabul qilish va muloqotni kuchaytiradi, shaxsiy, professional va jamoat sohalarida sog'lom munosabatlarni rivojlantiradi. Shuning barobarida boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik va hurmat tuyg'ularini rivojlantirib, adolatli va barqaror jamiyatga hissa qo'shadi.

Hayotiy ko'nikmalar gender to'siqlarini yengib o'tish uchun stimuly beruvchi vosita sifatida ham ishtirok etadi. Ular o'quvchilarga ijtimoiy me'yorlarga qarshi chiqish, o'ziga ishonch va qat'iyatni rivojlantirish imkonini beradi. Bu ko'nikmalarni o'zlashtirish ijtimoiy-siyosiy faollikni ta'minlashi barobarida teng huquqli bo'lish, inklyuziv munosabatlarga ham keng yo'l ochadi. Ayniqsa, "rivojlanayotgan mamlakatlarda chetlashtirilgan va himoyasiz qizlarni qo'llab-quvvatlashdagi roli, ularga qashshoqlik va genderga asoslangan kamsitish zanjirlarini yechish orqali kelajagini qayta shakllantirish vositalarini ham taklif qiladi" [4].

Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha uzluksiz adabiy ta'lim tizimi qizlarni o'z taqdiri, jumladan, shaxsiy huquqlarini o'zlashtirish, o'zaro munosabatlarga kirishishga doir bilimlar bilan ta'minlaydi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga doir o'quv materiallari va dasturlar o'quvchilarning reproduktiv va salomatligini mustahkamlashga hissa qo'shishi mumkin. Hayotiy ko'nikmalar o'smir qizlar va o'g'il bolalarga mavjud imkoniyatlarini namoyon etishga shart-sharoit yaratadi. Jumladan, A.Kaskarning fikricha, "sog'lom va mustahkam munosabatlarni o'rnatish, munosib tanlovlar qilish,

impulsiv qarorlardan qochish va o'z harakatlari uchun javobgarlikni zimmlariga olishga yordam beradi" [5].

Bugungi bitiruvchilar aksariyat hollarda oliy ta'lim tizimida rivojlantiriladigan ko'nikmalar va ish beruvchilarning haqiqiy ehtiyojlari o'rtasidagi tafovutga duch kelishadi. Bunda "Muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, muloqot, yetakchilik va moslashuvchanlik kabi hayotiy ko'nikmalar kadrlarning ish samaradorligi va unumdorligini oshiruvchi qimmatli xususiyat" [6] ga aylanishi tabiiydir.

So'nggi vaqtlarda ayon bo'lmoqdaki, ish beruvchilar tomonidan qattiq ko'nikmalar (hard skills) va yumshoq ko'nikmalar (soft skills)ni mukammal o'zlashtirgan nomzodlar qadrlanadi. Muayyan rollar uchun zarur bo'lgan o'ziga xos texnik ko'nikmalardan iborat qattiq ko'nikmalar analitik va tanqidiy tafakkurni o'z ichiga oladi. Yumshoq ko'nikmalar esa atrofdagilar bilan uzluksiz hamkorlik qilish va o'zgaruvchan vaziyatlarda harakatlanishni osonlashtiradigan shaxslararo qobiliyatlardan iborat [12]. Bularga vaqtni boshqarish, muayyan jarayonni samarali tashkil etish, jamoaviy ish, hamkorlik va yetakchilik kabi bir qator kompetentsiyalar kiradi. Ushbu ko'nikmalar to'plami o'quvchilar amaliy faoliyati samaradorligi, unumdorligi va kelgusida professional sohada muvaffaqiyatga erishish jarayonini yanada chuqurlashtiradi. Shuningdek, o'quvchilarda o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, ba'zan uchrab turadigan kichik kelishmovchiliklarni hal qilish va o'z rollarida muvaffaqiyat qozonish istaklarini ham ro'yobga chiqaradi.

Hayotiy ko'nikmalar o'quvchilarda atrofida sodir bo'layotga voqealardan xabardorlik, sabr-chidamlilikni tarbiyalaydi, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va sog'lom munosabatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ular ruhiy xotirjamlikni ta'minlash kuchiga ega bo'lib, hayot qiyinchiliklarini qat'iyat bilan yengib o'tishga o'rgatadi. Bundan tashqari, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishni rag'batlantirish orqali o'ziga nisbatan ishonch hissini oshirishga yordamlashadi. Bu esa ularning o'zlari va boshqalarning huquqlarini himoya qilish qobiliyatini ham yaxshilaydi.

Hayotiy ko'nikmalarni rivoltantirish uzluksiz ta'lim muassasalari va hatto jamoatchilikka asoslangan dasturlar orqali ham amalga oshiriladi. Ular ijtimoiy

kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarga kundalik hayot talablari va qiyinchiliklarini oqilona yengishga sharoit yaratadi, ijobiy va moslashuvchan xulq-atvorni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan geymifikatsiyani adabiy ta'limga yaxlit yondashuv sifatida tatbiq etish o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida akademik yutuqlar kabi muhimdir.

"Geymifikatsiya (inglizcha gamification) – bu o'yin elementlarini o'yin bo'lmagan vaziyatlarga, masalan, biznes, ta'lim yoki sog'liqni saqlash kabi sohalarga qo'llash. Maqsad foydalanuvchilarning faolligi, motivatsiyasi va ishtirokini oshirishdir" [10]. Ushbu tushuncha, shuningdek, "elektron ilovalar, veb-saytlar va boshqa sohalarda foydalanuvchilarni jalb qilish, ularning faolligini oshirish hamda ma'lum bir vazifalarni bajarishga undash maqsadida o'yinlarga xos bo'lgan usullarni (masalan, ball to'plash, darajalarni ko'tarish, mukofotlar olish) tatbiq etishni nazarda tutadi. Bu foydalanuvchilarni o'yin jarayoniga o'xshash muhitga jalb etib, mahsulotlar yoki xizmatlardan foydalanishni qiziqarliroq qiladi" [11].

Darslarda o'yin elementlaridan foydalanish yo'llarini tadqiq etgan R.G'oyibboyeva o'z kuzatishlarida har bir o'quvchi o'yinga tayyorgarlik ko'rayotganida uning maqsadi, vazifasi, rejadagi qaysi mavzuga tegishli ekani, avvalgi o'yinlarda shakllangan malaka va ko'nikmalarni keyingilariga ham qo'llay olishni bilishlari lozimligini qayd etadi [13; 16-b.]. Bizningcha ham shunday, lekin rejalashtirilgan o'yinlar o'quvchilarda aynan qaysi sifatlarni tarkib toptirishi masalasi muhimligini ham yodda tutish joiz.

Adabiy ta'limda geymifikatsiyadan foydalanish darslarni yanada qiziqarli qilishi barobarida topshiriqlarni jiddiy bajarishga rag'batlantiradi. Masalan, o'quvchilarga to'g'ri javoblari, mashg'ulotdagi faolligi, muhohakamalardagi o'zini tutishi, fikrini to'g'ri dalillay olgani uchun turli shakl va mazmundagi rag'batlantirishlar berish maqsadga muvofiq. Geymifikatsiyaning didaktik o'yinlardan farqi mavjud bo'lib, ular o'yin elementlarini real vaziyatlarda qo'llashda aniq namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, rag'batlantirishni turli shakl va mazmunda amalga oshirish ham o'quvchilarda jur'at, qiziqish, mas'uliyat va boshqalarning ishonchini qozonishga nisbatan faolligini oshiradi.

Metodist Q.Husanboyevaning yozishicha, bunday o'yinlar "badiiy asarda ko'tarilgan muammoni aniqlash; dars ssenariysini o'quvchilar bilan hamkorlikda tuzish; g'oyalar va vazifalarni o'quvchilar o'rtasida taqsimlash hamda muammoni hal etish yo'llarini belgilash"ga xizmat qiladi [3; 239-b.]. Shu bois badiiy asar va hayotiy vaziyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni hayotga ko'chirish, ularni real vaziyatlarda qo'llash ancha samaralidir.

Pedagog olim J.Yo'ldoshev o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun amaliy yechimlarni aniqlashda ta'limiy maqsadlarga qaratilgan o'yinlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Olimning fikricha, "o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlar"dan foydalanish turli o'quv fanlarini sifatli o'rgatish maqsadiga xizmat qiladi [9; 84-b.]. Ko'rinadiki, o'yinlar va uning maqsadga qaratilgan ayrim elementlari badiiy asardagi biror muammoni aniqlash, uni yechish yuzasidan kutilmagan g'oyalarni berishga qiziqtirishi va o'zlashtirishni o'yin yo'li bilan amalga ishirish orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni real hayot sharoitlarida bilimlarini qo'llash imkonini beruvchi loyihaga asoslangan o'rganish, jamoat xizmati, amaliyot va simulyatsiyalar orqali haqiqiy o'rganishga sharoit yaratish muhim sanaladi. Ota-onalar va jamoat hamkorlarini adabiy ta'lim jarayoniga jalb qilish ushbu ko'nikmalarni darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustahkamlashni kuchaytiradi. Baholash usullari an'anaviy tizimdan tashqariga chiqib, o'quvchilarning portfolio, o'zini o'zi tahlil qilish, tengdoshlarini baholash va amaliy vaziyatlarda mavjud ko'nikmalarini namoyish etishlarini qamrab olishi kerak. Bu borada eng muvaffaqiyatli ishlar kompleks yondashuvga asoslanishni taqozo etadi. Natijada hayotiy ko'nikmalar ta'lim muassasasi qadriyatlari mazmuniga singdirilib, nazariya va amaliyotning o'zaro ta'siri orqali doimiy ravishda mustahkamlanib boradi.

Geymifikatsiya elementlari o'quvchilarda hissiyotlarni boshqarish va xatti-harakatlarini tartibga solish orqali ruhiy salomatlik muammolariga qarshi kuchli profilaktik yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Stressni boshqarish texnikasi, ularga

qarshi sog'lom kurashish strategiyalarini yetkazish o'quvchilarda murakkab his-tuyg'ularning jiddiyroq muammolarga aylanib ketishini yengishga yordamlashadi. Shu orqali o'quvchilar o'zlarining hissiy qo'zg'atuvchilarini tan olish va qiyin vaziyatlarda muvozanatni saqlash uchun shaxsiylashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishni o'rganadilar. Bundan tashqari, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha adabiy ta'lim mazmuni ruhiy xotirjamlikni ta'minlashga doir ergonomik muhit yaratish orqali salomatlik bilan bog'liq stigmani kamaytiradi.

Geymifikatsiya orqali singiriladigan muloqot ko'nikmalari o'quvchilarga o'z ehtiyojlarini ifodalash va zarur hollarda yordam so'rashlariga ko'maklashadi. Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha adabiy asarlar matni ustida ishlash xususiyatlari sabr va chidamlilikni oshirishda, ayniqsa, qimmatlidir, chunki o'quvchilar asar qahramonlari kabi qiyinchiliklardan o'zlarini tiklash, o'zgarishlarga moslashish va murakkab vaziyatlarda shaxsiy nuqtayi nazarini saqlab qolish qobiliyatini takomillashtiradilar.

Tadqiqot ishimiz shuni ko'rsatdiki, geymifikatsiyaga asoslangan keng qamrovli hayotiy ko'nikmalar dasturi o'smirlar orasida umumiy psixologik xotirjamlikni oshirishi qatori xavotir va depressiya alomatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu ularni maktabda amalga oshiriladigan ruhiy salomatlik tashabbuslari, masalan, ekologik muammolarga qarshi harakatlarining muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga doir badiiy asarlar matni ustidagi ishlar o'quvchilarda vaziyatga moslashuvchanlik va qiyinchiliklarga chidamlilikni tarkib toptiradi. Bunda o'zlashtirilgan ko'nikmalar kamroq chiziqli bo'lib, asosan, moslashuvchanlikni talab qilganligi sababli muhim xususiyat hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik komponentlari o'quvchilarni shaxsiy mablag'larini oqilona ishlatish va kasbiy hayotlariga tegishli iqtisodiy tushunchalarni amalda qo'llashga tayyorlaydi. Eng muhimi, geymifikatsiyaga asoslangan yondashuv o'quvchilarda o'z-o'zini anglashlashga o'rgatadi, fikrlashni rivojlantiradi, asar va hayot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish ko'nikmasini shakllantiradi. Adabiyot ta'limida turli sohalar va lavozimlarda zarur sanalgan ko'nikmalarni tarkib toptirishga e'tibor berish orqali

tez o'zgarib borayotgan sharoitlarda kelajak uchun tanlash mumkin bo'lgan yo'nalishlar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

XULOSA

O'quvchilar hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirganda faollashadi, o'zlari va jamoalari uchun mas'uliyatni zimmlariga olishga qodir bo'ladilar. Hayotiy ko'nikmalar rivoji sog'lom jamiyat taraqqiyoti uchun mas'ullikni his etadigan, o'z huquq va majburiyatlarini hurmat qiladigan, o'zgalarning xotirjamligi va farovonligi uchun qayg'uradigan, fikrlarini dalillar bilan aniq ifodalaydigan fuqarolarga har tomonlama bog'liq. Bu ko'nikmalar o'z-o'zidan rivojlanmaydi, ularni o'zlashtirish yo'llarini tanlash lozim. Ba'zi hayotiy ko'nikmalar uyda yoki ishda kundalik tajribalar orqali rivojlantirilishi mumkin bo'lsa-da, ular odamlarni bugungi dinamik va xilma-xil jamiyatda o'ynashlari kutilgan faol rollarga tayyorlash uchun yetarli emas. Bunda badiiy asarlar matni ustida ishlashga doir yondashuvlar, xususan, geymifikatsidan foydalanish samaradorlikni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ash, S. (n.d.). The 10 Most Important Life Skills and How to Develop Them. Better Humans. <https://betterhumans.pub/the-10-most-important-life-skills-and-how-to-develop-them-b1322561309>
2. Gabhainn, S. N., Barry, M., & Kelly, C. (2020). Life skills education school handbook. World Health Organization. <https://apps.who.int/iris/rest/bitstreams/1276896/retrieve>.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. I qism. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 292 b.
4. Kwauk, C., Braga, A., Kim, H., Dupuy, K., Bezu, S., & Knudsen, A. (2018, May). Non-formal girls' life skills programming. Eric Institute of Education Sciences. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED586317.pdf>.
5. Kackar, A., Dr, & Joshi, H., Dr (2019). Impact of Life Skills among Adolescents: A Review. International Journal of Research and Analytical Review, 6 (2). http://ijrar.com/upload_issue/ijrar_issue_20543579.pdf.
6. Nair, P. K., Dr, & Fahimirad, M. (2019, August 19). A Qualitative Research Study on the Importance of Life Skills on Undergraduate Students' Personal and Social Competencies. Eric Institute of Education Sciences. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1226614.pdf>.
7. Prajapati, R., Sharma, B., & Sharma, D. (2016). Significance Of Life Skills Education. Contemporary Issues in Education Research (CIER), 10 (1), 1–6. <https://doi.org/10.19030/cier.v10i1.9875>.
8. UNICEF (n.d.). KNOWLEDGE BRIEF: BASIC LIFE SKILLS CURRICULUM. <https://www.unicef.org/azerbaijan/media/1541/file/basic%20life%20skills.pdf>

9. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замоновий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 132 б.
10. <https://www.google.com/search?q=Geymifikatsiya>
11. <https://www.google.com/search?q=Geymifikatsiya+nima&oq>
12. <https://palnetwork.org/life-skills-nurturing-holistic-growth-in-education/>
13. G'oyibboyeva R. Darslarda o'yin elementlaridan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2013. – № 8. – B. 16–17.